MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘ZBEK XALQ MEHNAT QO‘SHIQLARI: TARIXIY VA ETNOMADANIY TAHLIL

Karimova Muqaddas Abdisamatovna,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
karimovamukaddas13@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-7450-8683

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, janriy xususiyatlari hamda etnografik ahamiyati yoritilgan. Mehnat qo‘shiqlarining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq asosiy turlari folklor namunalariga tayangan holda tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu qo‘shiqlarning xalqning mehnat madaniyati, turmush tarzi, estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini aks ettirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat qo‘shiqlari, folklor, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, marosim folklori, xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, mehnat marosimlari, an’anaviy madaniyat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются происхождение, этапы развития, жанровые особенности и этнографическое значение узбекских народных трудовых песен. На основе образцов устного народного творчества анализируются трудовые песни, связанные с земледелием, животноводством и ремесленничеством. Особое внимание уделено отражению в данных песнях трудовой культуры, образа жизни, эстетических взглядов и духовных ценностей узбекского народа.*

Ключевые слова: *трудовые песни, фольклор, земледелие, животноводство, ремесленничество, обрядовый фольклор, устное народное творчество, этнография, трудовые обряды, традиционная культура.*

Abstract. *This article examines the origin, historical development, genre characteristics, and ethnographic significance of Uzbek folk labor songs. Based on examples of folklore, it analyzes labor songs related to agriculture, animal husbandry, and traditional craftsmanship. The study highlights the role of these songs in reflecting the labor culture, way of life, aesthetic values, and spiritual heritage of the Uzbek people, emphasizing their importance as an integral part of the national folklore tradition.*

Keywords: *labor songs, folklore, agriculture, animal husbandry, craftsmanship, ritual folklore, oral tradition, ethnography, labor rituals, traditional culture.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibida mehnat qo‘shiqlari alohida o‘rin egallaydi. Ular xalqning ko‘p asrlik mehnat tajribasi, turmush tarzi, madaniyati va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan qadimiy folklor namunalaridan hisoblanadi. Chunki insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlari mehnat orqali yuzaga kelgan. Mehnat bilan bog‘liq marosimlar xalq og‘zaki ijodining qadimiy qatlamlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, mehnat qo‘shiqlari xalq folklorining ajralmas qismi sifatida asrlar davomida yashab kelgan. Mehnat jarayonida yaratilgan ushbu qo‘shiqlar nafaqat jismoniy mehnatni engillashtirish, balki

kishilarga ruhiy dalda berish, jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlash va mehnat ritmini uyg‘unlashtirish vazifasini ham bajargan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari xalqning iqtisodiy hayoti, urf-odatlari hamda ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim etnografik va folklor manbalaridan sanaladi.

Mehnat qo‘shiqlari haqida so‘z borganda, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini alohida ta’kidlash lozim. Har qanday qo‘shiq mehnat jarayonida kuylangani uchun mehnat qo‘shig‘i hisoblanmaydi. Bunday qo‘shiqlar bevosita bajarilayotgan ish mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ularning ohangi, ritmi va ijro usuli mehnat jarayonining harakatlariga mos keladi. Ayrim hollarda qo‘shiq matnida ishlatilayotgan mehnat qurollari yoki jarayonlari ham tilga olinadi. Shu jihatlari bilan mehnat qo‘shiqlari oddiy aytimlardan farqlanadi.

Folklorshunos olimlar mehnat qo‘shiqlarining shakllanish jarayonini bir necha bosqichlarga ajratadilar. Jumladan, professor B. Sarimsoqov bu qo‘shiqlarning rivojlanishini uch davrga bo‘lib o‘rganadi. Birinchi bosqichda mehnat qo‘shiqlari vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda mehnat taqsimoti kuchayishi natijasida turli ko‘rinishdagi qo‘shiqlar shakllangan. Uchinchi bosqichda esa mehnat qo‘shiqlari mustaqil janr sifatida takomillashgan.

Mehnatning har bir turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgani kabi, u bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham bir-biridan farq qiladi. Ularning ijro usuli, mazmuni, obrazlari va badiiy ifoda vositalari turlicha bo‘ladi. Shu sababli mehnat qo‘shiqlari umumiy nom bo‘lsa-da, ular ichida alohida janrlar mavjud. O‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlari asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq turkumlarga bo‘linadi. Har bir yo‘nalishda mehnatning turli jarayonlariga mos ravishda alohida qo‘shiqlar shakllangan. Bu qo‘shiqlar xalqning kundalik hayoti, dunyoqarashi va mehnat madaniyatini aks ettiruvchi muhim folklor namunalaridan biri hisoblanadi.

Dehqonchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari. O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelganlar Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Sharq sivilizatsiyasida dehqonchilik madaniyati rivoji sug‘orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Tarixiy tadqiqotlardan ma’lumki, qadimgi Misr va Mesopotamiyada miloddan avvalgi VII, Hindiston, Eron va O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalarida esa miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab insoniyat ilk dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullana boshlagan hamda dastlabki chorvachilikni yo‘lga qo‘ygan, ya’ni odam tabiat in’omlarini o‘zlashtirib qolmasdan, o‘zi ham yaratuvchilik faoliyatini boshlagan[1]. O‘rta Osiyo zaminidagi eng qadimgi ziroatchilik madaniyati “Joytun madaniyati” bo‘lib, u miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda shakllangan[2]. Jamiyatdagi bu taraqqiyot O‘zbekiston hududida ham o‘ziga xos ko‘rinishda yuz bergan. Ilk dehqonchilikning ibtidoiy shakli neolit davrida boshlangan. Biroq, sug‘orma dehqonchilik ibtidosi miloddan avvalgi II ming yillik boshida qadimgi Baqtriya hududi (Surxondaryo viloyati)da kuzatiladi[3]. Arxeolog olimlar xulosalariga ko‘ra, biz uchun tadqiqot ob’ekti bo‘lgan Farg‘ona vodiysida bu jarayon miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalaridan boshlangan[4].

Dehqonchilik ishlari qadimdan bahor faslida er haydash jarayoni bilan boshlangan. Yer haydash nihoyatda mashaqqatli jismoniy mehnat bo‘lgani sababli dehqonlar o‘z

mehnatini engillashtirish, charchoqni unutish va ruhiy dalda olish maqsadida turli qo‘shiqlar kuylaganlar. Qo‘sh haydash vaqtida ijro etilgan bunday aytimlar xalq orasida “qo‘sh qo‘shiqlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ushbu qo‘shiqlarda ko‘pincha ho‘kiz obrazi orqali dehqonning og‘ir turmushi va mehnat azobi ifodalangan.

Shoxlarim bor gaz quloch,
Ustimda o‘ynar qaldirg‘och,
Hayday desam qornim och,
Men qo‘shga qanday yarayin?
Egamning oti mallaxol,
Menga berar sholi-poxol,
Uni eb bo‘ldim behol,
Men qo‘shga qanday yarayin?

Bu misralarda dehqon o‘z dardini ho‘kiz tilidan bayon qiladi. Aslida esa unda oddiy mehnatkash insonning og‘ir hayoti va tirikchilik tashvishi aks etadi. Ayrim qo‘shiqlarda esa dehqon o‘zining ham, ho‘kizning ham mehnatga mahkum ekanini ta’kidlaydi.

O‘roq o‘rmoq, olmoq-solmoq,
Qo‘sh haydamoq, bormoq-kelmoq,
Hammasidan qiyin ekan,
Ey ho‘kizim, ro‘zg‘or qurmoq.

Xirmon yanchish jarayonida aytiladigan qo‘shiqlar esa “Xo‘p mayda” yoki “Maydagul” deb atalgan. Bu qo‘shiqlar baland va cho‘ziq ohangda ijro etilgan bo‘lib, ularda hosilni yig‘ishtirish, ro‘zg‘orni ta’minlash hamda ish hayvoniga bo‘lgan mehr-muhabbat tasvirlangan. Ho‘kiz dehqon uchun nafaqat yordamchi kuch, balki tirikchilik tayanchi sifatida qaralgan. Shu bois qo‘shiqlarda uning tashqi ko‘rinishi ham alohida mahorat bilan tasvirlangan.

Ayri-ayri tuyog‘ing, mayda-yo mayda,
Senga naqsh yarashar, mayda-yo mayda.
Jilviragan qulog‘ing, mayda-yo mayda,
Tilla sirg‘a yarashar, mayda-yo mayda.

Bunday qo‘shiqlarda mehnat jarayonining ritmi, dehqonning quvonchi va ishga bo‘lgan ishtiyoqi sezilib turadi. Shu bilan birga, hosilni asrash, xirmonni qushlardan himoya qilish kabi holatlar ham xalqona yumor bilan ifodalangan.

Qora-qora qarg‘alar, mayda-yo mayda,
Xirmonni ko‘rsa yo‘rg‘alar, mayda-yo mayda.
Mayda qilgin uvatib, mayda-yo mayda,
Sensan mening quvvatim, mayda-yo mayda.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlari ham o‘zbek mehnat folklorining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Yorg‘ichoq yordamida bug‘doy, arpa yoki tariqni maydalash juda og‘ir va zerikarli mehnat bo‘lgani uchun kishilar bu jarayonda ham qo‘shiq kuylaganlar. Qo‘shiqlarning ohangi yorg‘ichoqning aylanish harakatiga mos ravishda vazmin va cho‘ziq bo‘lgan.

Yorg‘ichoq torta-torta toldi qo‘lim,
Ikki tosh orasida qoldi qo‘lim.

Bu misralarda xalqning og‘ir mehnatdan charchagani, ammo tirikchilik ilinjida ishlashda davom etgani ifodalangan. Ayrim qo‘shiqlarda esa oddiy xalqning orzu-umidlari va go‘zallikka bo‘lgan intilishi ham aks etadi.

Yorg‘ichoqdan ro‘zg‘orimda un bor ekan,
Go‘zal qizning yuzida nur bor ekan.

Chorvachilik bilan bog’liq qo’shiqlar. Chorvachilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari ham xalq og‘zaki ijodining qadimiy qatlamlaridan biridir. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi qadim zamonlardan buyon chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Chorvachilik nafaqat tirikchilik manbai, balki xalqning urf-odatlari, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli chorvadorlarning mehnati, hayot tarzi va chorva hayvonlariga bo‘lgan munosabati xalq qo‘shiqlari hamda marosimlarida yorqin aks etgan[5].

Chorvachilik bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlari orasida sog‘im qo‘shiqlari alohida o‘rin egallaydi. Bunday qo‘shiqlar sigir, qo‘y, echki, biya va tuyalarni sog‘ish jarayonida aytilgan bo‘lib, ular asosan erkalash, ovutish va jonivorni iydirish maqsadida kuylangan. Sog‘im qo‘shiqlari xalqning chorva hayvonlariga bo‘lgan mehr-muhabbati, ularni ro‘zg‘orning barakasi deb bilganini yaqqol namoyon etadi. Inson ming yillardan beri hayvon bilan yonma-yon yashaydi: bir tomonda mehr, ikkinchi tomonda ertalab soat beshda turib sog‘im qilish azobi. Sigir sog‘ishda aytiladigan qo‘shiqlar xalq orasida “Xo‘sh-xo‘sh” yoki “Xo‘shim” deb nomlangan. Ushbu aytimlarda sigirga murojaat qilish, uni silab-siypash va muloyim ohangda erkalash asosiy o‘rin tutadi. Qo‘shiqlar orqali sigirdan ko‘proq sut berish so‘ralgan va u xonadonning rizq-ro‘zi sifatida ulug‘langan.

Saralab eding o‘tingni, xo‘sh-xo‘sh,
Iyib bergin sutingni, xo‘sh-xo‘sh.
Olmazor buloq o‘ting bor, xo‘sh-xo‘sh,
Oqar buloq suting bor, xo‘sh-xo‘sh.

Bu qo‘shiqlarda sigirning yaylovdagi hayoti, uning sutining mo‘l-ko‘lligi va inson uchun foydasi badiiy tarzda ifodalanadi. Qo‘shiq aytilayotganda sog‘uvchi sigirning boshini, bo‘ynini yoki yon tomonlarini silab turadi. Shu tariqa hayvon bilan inson o‘rtasida o‘ziga xos ruhiy yaqinlik yuzaga kelgan.

Ola sigir ol deydi,
Issiq joyga sol deydi.
Ola sigir sutini,
Asal bilan bol deydi.

Ayrim qo‘shiqlarda sigir “g‘ovmish mol” deb erkalangan va uning sutdorligi alohida ta’riflangan.

Xo‘shim molim, g‘ovmishim,
To‘rtako‘lda o‘ting bor,
Qozon-qozon suting bor,
Otli molim xo‘sh-xo‘sh,
Zotli molim xo‘sh-xo‘sh.

Qo‘y sog‘ish va qo‘zilarni emizish vaqtida ijro etiladigan aytimlar esa “Turey-turey” yoki “Furey-haypuy” qo‘shiqlari deb yuritilgan. Ushbu qo‘shiqlarda ona qo‘yga murojaat

qilish, qo‘zisini emizishga undash va chorvador hayotining turli jihatlarini tasvirlash asosiy mavzu hisoblanadi. Har bir misra oxirida takrorlanadigan “turey-turey” yoki “pufey-pufey” kabi so‘zlar qo‘shiqning ohangdorligini kuchaytirgan[6].

Bolangni ol, jonivor, turey-turey,
Sen bolangni olmasang, turey-turey,
Ola itni echiraman, turey-turey.

Bu qo‘shiqlarda yaylov manzaralari, cho‘ponlarning turmushi va qo‘ylarni yirtqichlardan asrash kabi holatlar ham aks etadi.

Echkilarni sog‘ish hamda uloqlarni emizish paytida aytiladigan qo‘shiqlar “Churey-churey” yoki “Churiyalar” deb atalgan. Ular boshqa sog‘im qo‘shiqlariga qaraganda cho‘ziqroq ohangda kuylangan. Ba’zan sog‘uvchi ayollar faqat “churey-churey” so‘zlarini takrorlash orqali ham echkini tinchlantirishga harakat qilganlar.

Molda bilinar qashqang-a, churey-churey,
Bormi bundan boshqang-a, churey-churey.
Ana erda yotganingda, churey-churey,
Yoningda o‘ynar jon bolang-a, churey-churey.

Hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari. O‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlari orasida hunarmandchilik bilan bog‘liq aytimlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday qo‘shiqlarda kosib va hunarmandlarning hayoti, ularning og‘ir mehnati, ruhiy kechinmalari hamda turmush tashvishlari o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, ibtidoiy mehnat qurollari yordamida bajarilgan uzoq va mashaqqatli ish jarayoni qo‘shiqlarda ta’sirchan tarzda aks ettirilgan.

Bo‘z to‘qiymiz qirg‘og‘in o‘xshatib,Moki otaman dastginamni qaqshatib,
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib,
Nafisdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir.

Bu misralarda bo‘zchi o‘z mehnatidan faxrlansa-da, uning hayoti og‘ir kechayotgani ham sezilib turadi. Hunarmandchilik qo‘shiqlarida ko‘pincha kosibning kambag‘alligi, mehnatining qadrsizligi va bozordagi qiyinchiliklar tasvirlangan. “Bo‘zchi belboqqa yolchimas” degan xalq maqoli ham aynan shu hayot haqiqatidan kelib chiqqan.

Ayollar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlarda charxda ip yigirish, gilam va olacha to‘qish, so‘zana hamda do‘ppi tikish kabi mehnat jarayonlari aks ettirilgan. Ayniqsa, charx bilan bog‘liq qo‘shiqlar xalq orasida keng tarqalgan.

Charxim tanob tashlaydi,
Bir baloni boshlaydi.

Bu kabi qo‘shiqlarda ayollarning kundalik mashaqqatli mehnati bilan birga, ularning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va orzu-istaklari ham ifodalanadi. Ba’zi aytimlarda esa hunarmandning og‘ir turmushi va mehnatidan nolishi ochiq seziladi.

Do‘kondan uyga kirsam tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiydi.
Qarichi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

Mazkur misralarda hunarmandning jismoniy charchog‘i, moddiy qiyinchiliklari va o‘z mehnati qadrlanmasligidan iztirob chekayotgani yaqqol ko‘rinadi.

Mehnat qo‘shiqlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ulardagi ohang va ritm bajarilayotgan ish harakati bilan uyg‘unlashib ketadi. Masalan, charxda ip yigirayotgan qizning qo‘l harakatlari qo‘shiq ohangi bilan bir maromda davom etgan. Shu sababli bunday qo‘shiqlarda sho‘xlik va engil kayfiyat sezilib turadi.

Charxim guv-guv etadi,
Marg‘ilonga etadi.
Marg‘ilonning qizlari,
Achchiq olma ekadi.

Bu qo‘shiqlarda yosh qizlarning quvnoq kayfiyati, go‘zallikka va hayotga muhabbati ifodalangan. Shuningdek, hunarmand ayollarning o‘z mahoratidan faxrlanishi ham xalqona badiiy vositalar orqali aks ettiriladi[6].

Kashtachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham xalq og‘zaki ijodining muhim namunalaridan biridir. O‘rta Osiyo ayollari qadimdan kashta tikish san’ati bilan mashhur bo‘lib, bosma, ilma, sanama va jamalay kabi kashta turlari keng rivojlangan. Har bir qizning kashta tikishni bilishi muhim hisoblangan va ular o‘z seplarini ham o‘z qo‘llari bilan tayyorlaganlar.

Ilma tikdim ilib-ilib,
Tomosha aylang yonimga kelib.
Rahmat deydi ko‘rgan kishi,
Har gulimga hayron qolib.

Kashta qo‘shiqlarida ayolning didi, sabr-toqati, san’atkorligi va nafis estetik qarashlari namoyon bo‘ladi. Shu tariqa hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari xalqning nafaqat mehnat madaniyatini, balki uning ruhiy olami va badiiy tafakkurini ham o‘zida mujassam etadi[7].

Xulosa qilib aytganda mehnat bilan bog‘liq marosimlar hamda qo‘shiqlar o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi va qadimiy turmush tarzini aks ettiruvchi muhim folklor namunalaridan biridir. Ushbu qo‘shiqlarda mehnat jarayonidagi ruhiy kechinmalari, orzu-intilishlari va hayot falsafasi badiiy tarzda ifodalangan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar insonning kundalik mehnatini engillashtirish, ruhiy dalda berish hamda mehnat jarayonini uyg‘unlashtirish vazifasini bajargan. Ayniqsa, sog‘im qo‘shiqlari, xirmon aytimlari, charx va kashta qo‘shiqlari orqali xalqning mehnat madaniyati, estetik didi hamda hayvonot va tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu folklor namunalarini o‘rganish, asrab-avaylash va yosh avlodga etkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki xalq qo‘shiqlari milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarni saqlash va tarixiy xotirani tiklashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorboev A. O‘zbekistonda ilk sug‘orma dehqonchilikning shakllanishi va antropogen landshtafning tashkil topishi // O‘zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – T., 2006. – B. 13.

2. Массон М.Е. Поселение Джайтун. – Л.,1971; Антонова Е.В. Обряди и верования первобитних земледелсев Востока. – М., 1990. – С. 91

3. Askarov A. Sapallitepa.–Fan, 1973.:- Askarov A., Abdullayev B.N. Djarkutan.–T.: Fan,1983:
4. Asqarov A. Eng qadimgi shahar.–T.: “Ma’naviyat”, 2001.
5. Anorboev A. O’zbekistonda ilk davlatchilik va uning o’rganilish tarixidagi ba’zi bir muammolar // O’zbekiston tarixi. – 2004. – № 4. – B. 10-11.
6. Токарев С.А. Обичаи, обряди и поверя, связанние с животноводством // Календарние обичаи и обряди в странах зарубежной Европи. – М., 1983. – С. 90-98.
7. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2013. – B. 43-46.